

Date: 1st October-2024

**QOZOQ TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Aynazarova Madina Urakovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

15-sonli maktab Qozoq tili va Adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta‘lim berish, yoshlarning qozoq tilini o‘rganish jarayonida qiziqarli metodlardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta‘lim olishi va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiyalar, metodika, yoshlar, qozoq tili darajalari, o‘yinlar, komputer.

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etadi. Bunda albatta, eng avvalo o‘qituvchi yuqori bilim va malakaga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki, ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o‘qitish tizimini qat‘iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko‘p jihatdan oliy ta‘lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta‘limiy ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan «butun ta‘lim tizimimizni tubdan qayta ko‘rib chiqish, professional bilimlarni egallash uchun imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qodir mutaxassislarini tayyorlashga yo‘nalganlikni kuchaytirish» zarurati yuzaga keldi. Shu munosabat bilan «kasb ta‘lim tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash» muammosi o‘z yechimini kutmoqda. Yangi tipdagi ta‘lim jarayonini yuqori pedagogik savodli, texnologik tarzda tashkil qilish imkonini beradigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni egallagan o‘qituvchilarni tayyorlashga bo‘lgan talab O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997-yil 10-iyundagi PF-1869 «Ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish to‘g‘risida»gi 5-sonli Qarorida o‘z tasdig‘ini topdi. Hozirgi kunda barcha ta‘lim muassasalarida o‘qitish tizimi butkul o‘zgardi. Yangi texnologiyalar kirib keldi. Misol tariqasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, qozoq tiliga bo‘lgan e‘tibor so‘nggi yillarda juda yuqorilab ketdi. Har bir maktabda qozoq tili kurslari tashkil qilindi. Imtixon jarayonida ham qozoq tilini bilish salohiyati tekshirilib boshlandi. Shuning natijasida qozoq tili o‘qituvchilariga bo‘lgan talab ham kuchaydi. Qozoq tilini o‘qitish bo‘yicha juda ko‘plab texnologiyalardan foydalanila boshlandi. Misol tariqasida kompyuterlashtirilgan ta‘lim, muloqot qilish orqali ta‘lim, ko‘pincha amaliyotni tadbiiq etgan holdagi ta‘lim ham shular jumlasidandir. Bola bilan shug‘ullangan vaqtda ularga bo‘lgan e‘tibor albatta juda kuchli bo‘lishi kerak. Ular bilan



Date: 1st October-2024

shugʻullanish davomida qozoq tili grammatikasining har bir detalini tushuntirish, savol-javob qilish davomida ularning talaffuzini tekshirish, soʻz boyligini oshirish ham juda katta ahamiyatga ega. Ingliz tili oʻqituvchilari har bir bolaning ingliz tili darajasini bilib olib koʻpincha ular bilan individual shugʻullanishadi. Chunki bola bilan koʻproq muloqotda boʻlsang shuncha tez til oʻrgana oladi. Zamonaviy texnologiyalardan yana turli elektron kitoblar, audio eshittirishlarni ham oʻqitish jarayoniga tadbiq qila boshlashgan. Hozirgi kunda taʼlim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday boʻlishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anʼanaviy taʼlimda oʻquvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarni oʻzlari qidirib topish, mustaqil oʻrganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishga oʻrgatadi. Axborot texnologiyalari oʻquvchilarni faol harakatga undaydi va mustaqil fikrlashini taʼminlab beradi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda taʼlimni rivojlantirishning yangi pogʻonasida oʻqitishni texnik vositalarsiz koʻtarib boʻlmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim koʻrsatkichlaridan biri – axborotlarni oʻquvchi-talabalarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida taʼminlanadi Shunday qilib, fanning rivojlanishi bilan ilmiy-texnik taraqqiyot biribirini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan taʼminlash muayyan darajada boshqarish yoʻnalishlarini oʻz ichiga oladi. Ammo oʻquv mashgʻulotlarini taʼlim metodlari bilan boyitish taʼlim tizimi va mantiqini buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya oʻquvchi-talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yigʻish hamda ulardan mashgʻulot jarayonida foydalanish yoʻlida maʼlum imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu maʼlumotlar esa fan asoslarining axborot taʼminoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi koʻp jihatdan uning axborot taʼminotiga ega boʻlishini va pedagogik jihatdan boshqarish yoʻnalishlarining tizimli hamda uzluksiz boʻlishini taqozo etadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tili zamonning talabi boʻla boshladi. Shuning uchun ham ingliz tilini oʻrganish bu texnologiyalarni bilishni ham talab qiladi. Kompyuter, internet bu qozoq tilini oʻqitishdagi vosita sanaladi. Qozoq tilini oʻqitishda zamonaviy texnologiyalarning oʻrni juda kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yoʻlini davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruza. 2010 yil 7 dekabr. –T.: Oʻzbekiston, 2010.



Date: 1stOctober-2024

2. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.

